

**Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi
majlisining navbatdagi**

3 -sonli BAYONI

2024-yil 3-iyul

Toshkent shahri

Raislik qiluvchi: X.R. Mamasaidov – vazirlik huzuridagi Jamoatchilik kengashi raisi
Qatnashdilar: Jamoatchilik kengashi a'zolari (ro'yxat bo'yicha).

KUN TARTIBI:

**Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi markaziy apparatiga
2024-yilning 1-yarim yilligi davomida kelib tushgan murojaatlarning ijro holati
to'g'risida**

(X.Mamasaidov, M.Boboyorov, I.Bakirova, N.Mamaraimova, X.Mamasaidov)

Yig'ilish avvalida keyingi besh yilda inson huquqlarini ta'minlash, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqligini kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining roli, aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilganligi xususida batafsil to'xtalib o'tildi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining muhim jihatlari, xususan, davlat boshqaruvi organlari faoliyati ustidan davlat nazoratini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvi vujudga kelishini bartaraf etish, mazkur jarayonga keng jamoatchilikni jalb qilish, vazirlik va idoralar faoliyatining barcha yo'naliшlarini "Davlat – xalq xizmatchisi" tamoyili asosida fuqarolarga xizmat qilishga yo'naltirish, shuningdek, "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturida ham qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish, jamoatchilik fikrining inobatga olinishi bo'yicha amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar belgilanganligi alohida ta'kidlandi.

Yig'ilishda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi markaziy apparatiga 2024-yilning birinchi yarim yilligi davomida kelib tushgan fuqarolar murojaatlarning ijro holati muhokama etildi.

Muhokamada 2024-yilning birinchi yarim yilligi davomida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga fuqarolar tomonidan jami 1791 ta murojaat kelib tushganligi bo'yicha ma'lumot berildi. Shundan: 682 tasi qanoatlantirilgan, 958 nafar fuqaroga tushuntirish berilgan, 3 ta rad etilgan, 3 ta ko'rilmasad qoldirilgan; 38 ta tegishliligi bo'yicha yuborilgan, 107 nafar fuqaro murojaati jarayonda, ko'rib chiqilishi yakunlanmaganligi qayd etildi.

Kun tartibidagi masalalarni muhokama qilish natijasi bo'yicha yig'ilish **qaror qiladi:**

1. Kengash raisi X.Mamasaidovning "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda vazirlik huzuridagi Jamoatchilik kengashi tomonidan bajariladigan ishlar to'g'risidagi takliflari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga:

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuni talablariga muvofiq ko'rib chiqish;

zarur hollarda fuqaro murojaatlarini o'r ganilishiga kengash a'zolarini jalb etish tavsiya etilsin.

3. Jamoatchilik kengashi a'zolariga:

vazirlik so'roviga ko'ra, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini o'r ganish jarayonlarida ishtirok etish;

murojaatlarni o'r ganishda yaqindan ko'mak berib borilishini amalga oshirsin.

4. Vazir maslahatchisi (N.Mamaraimova) Jamoatchilik kengashi kun tartibida ko'rilgan masalalar to'g'risidagi takliflarni vazirlik rahbariyatiga kiritilishini ta'minlasin.

5. Mazkur yig'ilish qarorining ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda goldiraman.

**Jamoatchilik kengashi
kotibi**

N.Mamaraimova